Madaminova Sanobar Askarovna	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA EKSPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	789
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA UNING KO'RSATKICHLARI.....	794
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	



KORXONA ASOSIY XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKT SIFATIDA AHAMIYATI.....	799
Yuldashova Yoqutoy Murodjon qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHİYATINI SAQLAB QOLISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	803
Bekchanov Ruslan Ambiyatovich	
PARALLEL KORPUS ASOSIDA INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QISHLOQ XO'JALIK ATAMALARINING EKVIVALENTLIK XUSUSIYATLARI.....	807
Yulduz Xalilova Nasriddinovna	
KOLBASA VA GO'SHT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISHDA CHIQUINDISIZ ISHLAB CHIQUARISH ("ZERO WASTE") MODELINING ROLI: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI AMALIY YO'NALISHLAR.....	810
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
EKSPORTYO'R KORXONALARDA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI BO'YICHA QO'SHILGAN QIYMAT VA FOYDA SOLIG'INI TO'G'RI HISOBLANISHI TAHLILI VA ISTIQBOLLARI	814
Sobirova Xilola Rustam qizi	
O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI RIVOJLANISHINING MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI	819
Ikramova Taxmina Latifovna	
YANGI RIVOJLANAYOTGAN BOZORLARIDA HR QAROR QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TA'LIMNING ROLI	824
Dilfuza Shokirova	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	833
Abdiev Mutolib Anvar o'g'li	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	838
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MHXS ASOSIDA BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	842
G'anibayev Iloxomjon Shokiraliyevich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BOG'LIQLIGI	847
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, Turdimuratova Aziza Alisherovna	
AGRAR ISHLAB CHIQUARISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" KONSEPSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	851
Yusupov Muxiddin Soatovich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojiakbar Zaynabidinov	



BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xo'jabbar Zaynabidinov

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq imtiyozlarining soliq turlari bo'yicha bugungi holati tahlil qilingan, soliq imtiyozlari va ulardan samarali foydalanish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilayotgan imtiyozlarning amaldagi holati, uning davlat budjetiga ta'siri hamda xorijiy mamlakatlar tajribasi kengroq ko'rib chiqilgan. Soliq imtiyozlarining o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Jahon savdo tashkiloti, soliq imtiyozlari, kichik biznes, qo'shilgan qiymat solig'i, qo'shilgan qiymat zanjiri, eksport, import, davlat budjeti, nol stavka.

Abstract. This article analyzes the current state of tax incentives by tax categories and examines effective mechanisms for their utilization. It also explores the existing system of value-added tax exemptions, their impact on the state budget, and the experience of foreign countries in this area. The study highlights both the positive and negative aspects of tax incentives from a scientific perspective.

Key words: World Trade Organization, tax incentives, small business, value-added tax, value-added chain, export, import, state budget, zero rate.

Аннотация. В статье проведён анализ действующих налоговых льгот по видам налогов, рассмотрены вопросы эффективного использования налоговых преференций. Также изучено текущее состояние льгот по налогу на добавленную стоимость, их влияние на государственный бюджет и международный опыт в данной сфере. В работе раскрываются положительные и отрицательные стороны налоговых льгот с научной точки зрения.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, налоговые льготы, малый бизнес, налог на добавленную стоимость, цепочка добавленной стоимости, экспорт, импорт, государственный бюджет, нулевая ставка.

KIRISH

Keyingi yillarda mamlakatimizda Jahon savdo tashkilotiga a'zolik bo'yicha ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Xususan, a'zo davlatlar bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi paytda Respublikamizda mahsulot ishlab chiqaruvchilar erkin savdo orqali 280 million iste'molchiga ega bo'lgan mintaqaviy bozorlariga chiqish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining kengaytirilgan preferensiyalar tizimi — "GSP+" doirasida O'zbekistondan 6 mingdan ortiq mahsulot turlarini Yevropa bozoriga imtiyozli shartlarda eksport qilish mumkin.

Mavjud transport koridorlarini diversifikatsiya qilish maqsadida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Transafg'on temir yo'li orqali Janubiy Osiyoga, O'zbekiston–Qirg'iziston–Xitoy temir yo'li orqali Osiyo–Tinch okeani mintaqasiga, shuningdek Janubiy Kavkazni kesib o'tuvchi multimodal transport koridori orqali Yevropa davlatlariga yetkazish imkoniyatlarini yaratish bo'yicha ham amaliy harakatlar olib borilayotgani hammaga ma'lum.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq tizimidagi soliq siyosati, shuningdek, davlatning soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning strategik va taktik yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ilmiy adabiyotlarda anchadan buyon keng yoritib kelinadi. Bu borada ko'plab olimlar turli ilmiy qarashlarni bildirgan.



Jumladan, T. G. Nesterenko o'z ilmiy xulosalarida budget siyosatining muhim jihatlarini ochib beradi. Uning ta'kidlashicha, davlatning budget siyosati — markaziy va mahalliy davlat organlarining strategiya va taktikalarini o'zida aks ettiruvchi tizim bo'lib, davlat funksiyalarini bajarish uchun moliyaviy resurslarni jamlash va ulardan samarali foydalanish orqali budget barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu, birinchidan, resurslarni umumiy miqyosda taqsimlashni, ikkinchidan, davlat, xo'jalik subyektlari va aholining manfaatlarini moliyaviy munosabatlar orqali muvofiqlashtirishni, uchinchidan esa budget tuzilmasi va mexanizmlarini yanada takomillashtirishni nazarda tutadi.

V. G. Panskov soliq siyosatiga quyidagicha ta'rif beradi: soliq siyosati — davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, iqtisodiyotni rivojlantirish hamda moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashga qaratilgan iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy choralar majmuasidir.

M. V. Karpning fikricha, soliq siyosati umumiy moliya tizimining tarkibiy qismi bo'lib, unda davlatning soliq sohasidagi uzoq muddatli konsepsiyasi, soliq mexanizmi hamda soliq tizimini boshqarish masalalari mujassam.

V. N. Yedronova va N. N. Mamikina "soliq siyosati" atamasiga quyidagicha yondashishni taklif etadi: soliq siyosati — soliq subyektlari faoliyatini tartibga solishga doir huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuasi.

S. I. Yuriy va J. M. Beskidlar fikricha, soliq siyosati — davlatning soliq yig'ish jarayonini tashkil etish, huquqiy tartibga solish hamda markazlashgan moliyaviy fondlarni shakllantirish bo'yicha olib boradigan faoliyatidir.

V. P. Oreshin soliq siyosatini iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi. Uning ta'rifiga ko'ra, soliq siyosati iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, soliq stavkalari darajasi, alohida soliq to'lovchilar uchun imtiyozlar, soliqlarni muddatini kechiktirish, takror ishlab chiqarish jarayonida soliqqa tortish tartibi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy tahlil va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning strategik hamda taktik yo'nalishlari bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqot usullari keng qo'llanilib tahlil qilindi.

Shuningdek, ushbu maqolada boshqa ko'plab ilmiy ishlar qatori soliq strategiyasining turli jihatlar — xususan, uning vaqt o'tishi bilan evolyutsiyasi, soliq strategiyasini biznes maqsadlariga moslashtirishning ahamiyati, hamda soliq strategiyasining korporativ ijtimoiy mas'uliyat va aksiyadorlar qiymatiga ta'siri bo'yicha berilgan ilmiy xulosalar asos qilib olindi. Bu jihatlar mavzuni chuqur o'rganishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish sharoitida raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish har qanday davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda ham erkin bozor tamoyillarini joriy etish, monopoliyalarni cheklash hamda tadbirkorlik subyektlari uchun teng sharoitlar yaratish bo'yicha islohotlar izchil olib borilmoqda.

Shunga qaramay, raqobat muhitini takomillashtirish jarayonida ayrim to'siqlar va soliq ma'muriyatchiligi bilan bog'liq muammolar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Avvalo, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy sharti — bozor mexanizmlarining erkin ishlashi va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ortiqcha aralashuvning kamaytirilishidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida qator mexanizmlar joriy etilgan. Jumladan, davlat tomonidan monopoliyalarning oldini olish va erkin bozordagi adolatli raqobatni ta'minlashga qaratilgan huquqiy normalar mustahkamlanmoqda. Mazkur tuzilma bozor infratuzilmalarida nohalol raqobat holatlarini aniqlash, yirik xo'jalik subyektlarining bozordagi ustun mavqei nazorat qilish va sun'iy to'siqlarni bartaraf etish kabi vazifalarni bajaradi.

Shuningdek, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida berilgan ayrim soliq imtiyozlari bosqichma-bosqich qayta ko'rib chiqilmoqda, chunki ortiqcha yoki noto'g'ri yo'naltirilgan imtiyozlar raqobat muvozanatini buzishi ehtimoldan xoli emas. Xususiylashtirish jarayonlarining jadallashuvi esa bozorga yangi ishtirokchilar kirib kelishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

Biroq mazkur choralar ayrim ijobiy natijalarga olib kelganiga qaramay, raqobat muhitini to'liq shakllantirish uchun yetarli emas. Raqobatni rivojlantirish, soliq ma'muriyatchiligida shaffoflikni oshirish, biznes uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash va soliq siyosatini JST talablari nuqtai nazaridan modernizatsiya qilish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Raqobat muhitini yaxshilashda soliq siyosati muhim o'rin tutadi. Biroq O'zbekistonda soliq ma'murchiligi bilan bog'liq qator muammolar mavjud bo'lib, ular soliq yukining notekis taqsimlanishida namoyon bo'lmoqda. Xususan, ayrim yirik korxonalarga berilayotgan soliq imtiyozlari ularning bozordagi ustunlik pozitsiyasini mustahkamlab, teng raqobat sharoitiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.



Bunday holat kichik va o'rta biznes subyektlarining raqobatbardoshligini pasaytiradi. Ayni paytda, ayrim strategik tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan yirik kompaniyalarga nisbatan soliq yukining pastligi kuzatiladi. Bu esa bozor muvozanatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur jarayonni 1-jadvalda soliq imtiyozlarining hududlar kesimidagi taqsimoti misolida ko'rish mumkin.

Soliq imtiyozlarini soliq turlari bo'yicha tahlil qilish natijasida esa 1-jadval ma'lumotlari asosida bir qator muammoli iihatlar aniqlangan.


1- jadval. Soliq turlari kesimida 2020–2024-yillar davomida qoʻllanilgan soliq imtiyozlari tahlili trln soʻm.

Hudud nomi	Soliq imtiyozlari foydalanilgan									
	2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil		2024 yil	
	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi
Jami	93871	31,07	104057	43,68	195884	72,96	211926	69,78	260886	72,57
QQS	7031	24,64	15508	36,77	28214	64,11	23498	57,29	24698	61,35
Nol stavka	0	0,00	0	0,00	7349	32,79	7877	28,65	8130	32,49
Moliyaviy va sug'urta xizmati	0	0,00	0	0,00	1417	15,78	2824	15,59	3234	17,88
QQSsiz	0	0,00	0	0,00	19448	15,53	12797	13,05	13334	10,98
Aksiz solig'i	0	0,00	0	0,00	840	0,02	1917	1,24	0	0,00
Foyda solig'i	3335	2,93	2709	2,22	25015	4,64	21407	5,02	27545	4,00
JShDS	44093	0,92	56165	1,07	41580	1,03	40328	1,02	43476	1,33
Suv solig'i	673	0,44	1376	0,46	685	0,01	1432	0,03	1244	0,06
YSH mulk solig'i	4813	0,27	2194	0,31	7809	0,93	12827	1,40	13969	0,82
YuSh yer solig'i	4531	1,31	6438	2,35	6204	0,93	15453	1,70	18416	2,18
Ijtimoiy soliq	6230	0,35	11247	0,39	52616	1,19	81692	2,00	91153	2,61
Aylanmadan soliq	23165	0,20	8420	0,11	32921	0,10	13372	0,08	40385	0,21

Mazkur 3-jadvalda 2020–2024-yillarda turli soliq turlari bo'yicha imtiyozlardan foydalanish holatlari va ularning moliyaviy ko'rsatkichlari aks etgan. Umumiy dinamika bo'yicha, 2020-yilda imtiyozlar 93 871 ta holatda qo'llangan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 260 886 taga yetib, 177% o'sish kuzatilgan.

Imtiyozlar summasi esa 2020-yilda 31 066 mlrd so'mni, 2024-yilda 72 565,8 mlrd so'mni tashkil etib, 133% o'sish qayd etilgan.

2021-yilga kelib imtiyozlar soni keskin oshgan, 2022-yilda 7 031 taga, 2024-yilda esa 24 698 taga yetib, qariyb 3,5 baravar ortgan.



1-rasm. 2024 yilda mavjud soliq imtiyozi summalarini soliq turlari kesimida aylana diagramma usulida tahlili

Quyidagi diagramma asosida tahlil qiladigan bo'lsak, soliq imtiyozlarining 2024 yilda 61 354,1 mlrd so'm yoki 84,5 foizi qo'shilgan qiymat solig'i hissasiga, 3 995,7 mlrd so'm yoki 5,5 foizi foyda solig'i hissasiga, 1 333,8 mlrd so'm yoki 1,8 foizi jismoniy shaxslar daromad solig'i hissasiga, 59,7 mlrd so'm yoki 0,1 foizi yuridik shaxslar suv solig'i hissasiga, 2 177,6 mlrd so'm yoki 3,0 foizi yuridik shaxslar yer solig'i hissasiga, 2 610,8 mlrd so'm yoki 3,6 foizi ijtimoiy soliq hissasiga, 824,4 mlrd so'm yoki 1,1 foizi yuridik shaxslar mol-mulk solig'i hissasiga va 209,7 mlrd so'm yoki 0,3 foizi aylanmadan olinadigan soliqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ushbu soliq imtiyozlarining 61 354,1 mlrd so'mi, ya'ni 84,5 foizi qo'shilgan qiymat solig'i ulushiga to'g'ri kelayotgani, shuningdek 32 488,8 mlrd so'm eksportni qo'llab-quvvatlash uchun joriy qilingan nol stavkali imtiyozlarning 52,9 foizini tashkil etayotgani, jami 72 565,8 mlrd so'mlik imtiyozlarning 44,8 foizi nafaqat soliq imtiyozidan samarasiz foydalanilayotganini, balki qo'shilgan qiymat zanjirining uzilishiga ham olib kelayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda yirik soliq to'lovchilar inspeksiyasi hamda Toshkent shahar soliq boshqarmalari tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy saldo noqonuniy qaytarilishi holatlari aniqlangani, ushbu jarayonning huquqni muhofaza qiluvchi organlar aralashuvi bilan ma'lum darajada tartibga solingani ham yuqoridagi tahlillarimizning to'g'riligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat budjetida 15,1 foiz, konsolidatsiyalashgan budjetda esa 14,02 foiz miqdorida defitsit mavjud bo'lgan sharoitda soliq imtiyozlarining 72,6 trln so'm (bu davlat budjetiga nisbatan 26,8 foiz, konsolidatsiyalashgan budjetga nisbatan 19,3 foiz) hajmda qo'llanilishi budjet barqarorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayniqsa, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha qo'llanilayotgan nol stavkali imtiyozlar iqtisodiyotning ayrim segmentlarida eksportni rag'batlantirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, ularning hozirgi ko'lamda qo'llanishi qo'shilgan qiymat zanjirining uzilishiga, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq imtiyozlaridan samarasiz foydalanilishiga olib kelayotgani kuzatilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, soliq tizimini takomillashtirish hamda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni bildirish mumkin:

1. QQS bo'yicha nol stavkali imtiyozlarni maqbullashtirish
 - Eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadida berilayotgan imtiyozlar iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida qayta ko'rib chiqilishi lozim.
 - Har bir imtiyoz turi bo'yicha "foyda-xarajat tahlili" (cost-benefit analysis) asosida baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.



2. Ichki bozorda QQS qo'llanilmaydigan kategoriyalarni qisqartirish
 - Ichki iste'mol narxini sun'iy tartibga solish maqsadida ayrim tovar va xizmatlarda QQS qo'llanmasligi natijasida zanjirning uzilishi yuzaga kelmoqda.
 - Mazkur amaliyotni bosqichma-bosqich qisqartirish orqali:
 - o qo'shilgan qiymat zanjirining uzilishining oldi olinadi;
 - o QQSning iste'mol narxlariga ta'siri nisbatan past bo'lganligi sababli budget daromadlari qo'shimcha 10,98 trln so'mga ortishi ta'minlanadi.
3. Soliq imtiyozlarining maqsadliligi va shaffofligini kuchaytirish
 - Har bir imtiyoz turi bo'yicha an'anaviy monitoring va baholash tizimi (M&E) joriy etilishi kerak.
 - Imtiyozlar "aniq sektor – aniq natija" tamoyili asosida belgilanib, sohaning samaradorligi doimiy baholanib borilishi lozim.
4. Soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish
 - QQS bo'yicha salbiy saldo qaytarilishi jarayonlarida kuzatilayotgan noaniqliklarning oldini olish uchun raqamlashtirish jarayonlarini kuchaytirish zarur.
 - Soliq organlari faoliyatida risklarni boshqarish tizimi (Risk Management System) to'liq joriy qilinishi imtiyozlarning suiiste'mol qilinishini kamaytiradi.
5. JST talablariga mos ravishda soliq siyosatini uyg'unlashtirish
 - Bozor iqtisodiyotida raqobatni rivojlantirish va xolis soliq siyosatini shakllantirish JSTning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.
 - Shu munosabat bilan soliq imtiyozlarining ortiqcha bo'lgan turlari bosqichma-bosqich qisqartirilishi, ularning o'rniga bozor mexanizmlariga asoslangan rag'batlantirish usullari joriy etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. T.: "Adolat", 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "[2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida](#)"gi PF–60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi "[O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](#)"gi PQ–181-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "[O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida](#)"gi PF–4947-son Farmoni.
5. Gechert, S., & Heimberger, P. (2022). Do corporate tax cuts boost economic growth? European Economic Review, 147, 104157.
6. Challoumis, C. (2024). Understanding The Cycle Of Money – Its Impact On Tax Policy And Economic Growth. SSRN Electronic Journal.
7. Alinaghi, N., & Reed, W. R. (2021). Taxes and economic growth in OECD countries: A meta-analysis. Public Finance Review, 49(1), 3–40.
8. Nguyen, H. T., & Darsono, S. N. A. C. (2022). The impacts of tax revenue and investment on economic growth in Southeast Asian countries. Journal of Accounting and Investment, 128–146.
9. Sharif, A., Koçak, S., Khan, H. H. A., Uzuner, G., & Tiwari, S. (2023). Demystifying the links between green technology innovation, economic growth, and environmental tax in ASEAN-6 countries: The dynamic role of green energy and green investment. Gondwana Research, 115, 98–106.
10. Arvin, M. B., Pradhan, R. P., & Nair, M. S. (2021). Are there links between institutional quality, government expenditure, tax revenue and economic growth? Evidence from low-income and lower middle-income countries. Economic Analysis and Policy, 70, 468–489.
11. Gurdal, T., Aydin, M., & Inal, V. (2021). The relationship between tax revenue, government expenditure, and economic growth in G7 countries: New evidence from time and frequency domain approaches. Economic Change and Restructuring, 54, 305–337.
12. [https://www.google.com/search?q=rossiya soliq tizimi](https://www.google.com/search?q=rossiya+soliq+tizimi)
13. [https://www.google.com/search?q=xorijiy mamlakatlar soliq tizimi](https://www.google.com/search?q=xorijiy+mamlakatlar+soliq+tizimi)
14. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining rasmiy axborot sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>